

O'rinova Maftuna No'mon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim kafedrası
o'qituvchisi, filologiya fanlari
falsafa doktori (PhD)

OXUNJON SAFAROV – BOLALAR FOLKLORINING AREAL TADQIQOTCHISI

Annotatsiya. Ushbu maqolada areal folklorshunoslik qonuniyatlari haqida fikr yuritilgan hamda buxorolik folklorshunos olim Oxunjon Safarovning sohaga qo'shgan hissasi haqida mulohaza yuritilgan. Buxoro bolalar folklori namunalari to'plangan "Boychechak" to'plami tarkibi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: areal folklor, alla, qo'shiq, marosim, bolalar folklori, erkalama, lokal xususiyat.

Аннотация. В статье рассматриваются законы ареального фольклора и размышляется о вкладе бухарского фольклориста Охунжона Сафарова в эту область. Проанализирован состав сборника «Бойчечак», в котором собраны образцы бухарского детского фольклора.

Ключевые слова: ареальный фольклор, алла, песня, обряд, детский фольклор, ласки, локальная особенность.

Annotation. This article discusses the laws of areal folklore and the contribution of the Bukhara folklorist Okhunjon Safarov to the field. The composition of the collection "Boychechak", which contains samples of Bukhara children's folklore, is analyzed.

Keywords: areal folklor, alla, song, ritual, children's folklor, petting, local feature.

Kirish. Folklor materiallarini areal jihatdan o'rganib, o'ziga xos lokal xususiyatlarini aniqlash, tarqalish chegaralarini belgilash hamda uni umumfolklor kontekstida tekshirish muhim ahamiyatga ega.

Areal termini lotin tilida "maydon", "sath", "makon" ma'nolarini anglatib, biror fakt yoki faktlar yig'indisining territorial qo'llanishiga aytiladi. Bu terminga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif berilgan: "Areal(lot. area, maydon, makon) 1. O'simlik yoki hayvonning biror turi, turkumi yoki oilasi tarqalgan hudud. 2. Til hodisalari – fonetik, leksik va b. hodisalar tarqalgan hudud, lingvistik areal". Ko'rinadiki, areal istilohi hudud bilan bog'liq chegaralash ma'nosini ifodalaydi.

So'nggi yillarda areal metodlar tilshunoslik, etnografiya, antropologiya, arxeologiya kabi fan sohalarining taraqqiyotiga muhim hissa qo'shib kelmoqda. Folklorida ham ushbu termin, garchi areallar umumiy nazariyasining asos tushunchasini ifodalasa-da, aniqlashtirishni talab etadi. Binobarin, folklor areali bu – badiiy-estetik, tarixiy-etnografik, dialektal va sotsial o'lchamlar bilan hisoblashgan, chegaralangan hududga xos aniq folkloriy dalillar yig'indisi hisoblanadi. Demak, hudud jihatdan chegaralanganlik areal folklorshunoslik tadqiqotlari obyektining asosiy belgisidir. O'zbek folklorining areal tadqiqi masalalari xususida ilk bor o'tgan asrning 80-yillarida fikr bildirildi. Jumladan, tadqiqotchi S.Shodiyeva areal tadqiq metodlarini folklorshunoslik sohasiga tatbiq etish orqali ko'plab chigal masalalarning yechimi topilishini isbotladi. U ma'lum hududdan to'plangan folklor materiallari asosida kartalashtirish metodini taklif qildi va folklor namunalarini makon jihatdan to'plab o'rganish folklorshunoslikda areal tadqiq usullarini yuzaga keltirishini aniqladi. Darhaqiqat, areal folklorshunoslikda kartografik metod alohida ahamiyatga ega. "Bu metod xalqning etnik tabiatini belgilovchi an'anaviy moddiy madaniyat, urf-odat va an'analari, turli-tuman sheva xususiyatlarini aks ettiruvchi katta qamrovdagi faktik materiallarni to'plab sistemalashtirish hamda etnolingvistik jarayonlar bilan bog'liq o'ziga xos qonuniyatlarni ochib berish maqsadida qo'llanadi".

Adabiyotlar tahlili. Etnofolkloriy hodisaning tarqalish doirasi va qayd qilinish darajasini kartografiya usulida aniqlash tajribasi ilk bor Fridrix Ratsel va Vilgelm Pesser tomonidan qo'llangan. Folklorshunoslikda bu metodning yuzaga kelishiga esa yirik fransuz folklorshunos olimi Arnold Van Genneppning tadqiqotlari asos bo'lgan. O'zbek folklorshunosligida mazkur metod ilk bor G'ozzi Olim Yunusov, Hodi Zarif tadqiqotlarida uchraydi. Jumladan, H.Zarifning 1934-yilda chop ettirilgan "Lug'at ham termin to'plaguvchilarga qo'llanma"sida "Programma" fasli mavjud bo'lib, unda turli ma'lumotlarni to'plash uchun savolnoma-anketalar ilova qilingan. Demak, o'zbek folklorshunosligida kartografik metod asosida material to'plash an'anasi birinchi marta H.Zarifov tomonidan amalga oshirilgan.

Xalq ogʻzaki ijodini areal tadqiq etish maʼlum hududdagi lokal xususiyatlarni toʻliq oʻrganish hamda ularni qiyosiy aspektda tahlil qilish imkonini beradi. Oʻzbek folklorshunosligida kartografik metod asosida bevosita yaratilgan ilmiy tadqiqot mavjud boʻlmasa-da, bu usulning ayrim qirralari folkloristik izlanishlarda qoʻllanib kelinmoqda. Namangan, Fargʻona, Xorazm, Surxandaryo hududlarining bolalar folklori alohida tadqiq qilinishi fikrimizni dalillaydi.

Binobarin, professor Oxunjon Safarov uzoq yillar oʻzbek bolalar folkloriga doir areal materiallarni toʻplash va nashr etish ishlarini olib bordi. Bevosita uning tashabbusi orqali Buxoro davlat universitetining Til va adabiyot kafedrasida huzurida 2007-yilda folklor arxivi va bolalar oʻyinchoqlari muzeyi tashkil etildi. Unda folklor amaliyotlari va ekspeditsiyalari davomida toʻplangan ogʻzaki badiiy ijod namunalari bilan birgalikda xalq turmushiga daxldor predmetlar, uy-roʻzgʻor buyumlari, mehnat qurollari, bolalar oʻyinchoqlari, xalqning qadimgi madaniyatiga aloqador kiyim-kechaklar, qoʻlyozma kitoblar saqlandi.

Olim faoliyati davomida oʻlkamizning Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm viloyatlari va Turkmaniston Respublikasining Farob tumani hamda Chorjoʻy shaharlari va qishloqlarida bolalar folkloriga doir kuzatish ishlarini olib bordi. Toʻplangan manbalar asosida olim uch tomlik "Oʻzbek folklori ocherklari" fundamental tadqiqotining birinchi jildi uchun "Bolalar folklori" boʻlimini yozib berdi. Oʻzbek bolalar folklorining alla, aytim-olqish, bolalar taqvimini va marosimi qoʻshiqlari hamda bolalar oʻyinlaridan tanlab olingan bir qator namunalari rus va ingliz tillariga tarjima qildirdi.

O.Safarovning bolalar folkloriga oid areal tadqiqotlari toʻplovchilik faoliyatida koʻzga tashlanadi. O.Safarov tashabbusi bilan XX asrning 70-80-yillarida yigirma ming satr atrofida bolalar qoʻshiqlari, mingdan ziyod bolalar oʻyinlari toʻplandi. 10580 satrni oʻz ichiga olgan "Boychechak", 3000 satrga yaqin "Alla-yo alla", oʻyinlar tasnifi aks etgan "Oʻzbek xalq bolalar oʻyinlari" (2011) kabi toʻplamlari yuzaga keldi. Aytish joizki, mazkur toʻplamga kiritilgan namunalarning aksariyati Buxoro vohasidan yigʻilgan. Buni folklor arxividagi materiallar ham tasdiqladi. Shuningdek, namunalarning oʻzbek va tojik tilida (shir-u shakar) aralash aytilishi, Buxoro shevasi bilan bogʻliq terminlarning koʻp qoʻllanishi fikrimizni asoslaydi.

Olimning "Boychechak" toʻplami koʻp tomlik "Oʻzbek xalq ijodi" ruknida tayyorlangan, biroq oʻsha davr mafkurasi (1984) asosida toʻplam tarkibidan diniy mavzudagi allalar chiqarib tashlangan, oʻrniga folklorshunos Kamol Ochilov tomonidan toʻplangan mehnat qoʻshiqlari kiritilgan. Shu sabab toʻplamga ikki soʻngsoʻz yozilgan. "Mehnat qoʻshiqlari" qismi uchun K.Ochilov, bolalar folklori qismi uchun esa O.Safarov "Bolalik kuylasa – olam munavvar" sarlavhali soʻngsoʻz ilova qilishgan. Unda olim (O.Safarov) oʻzbek bolalar folklorining qadimiyligi, anʼanaviyligi, uning yaratuvchilari va ijrochilari, toʻplab, nashr qilinishi va oʻrganilish tarixi, tasniflanishi haqida muhim nazariy fikrlarini aks ettirgan.

Tahlillar va natijalar: "Boychechak" toʻplami oʻzbek bolalar folklorining nihoyatda boyligi, xilma-xil janrlardan tarkib topgan yaxlit badiiy tizim ekanligini koʻrsatadi. Unda bolalar folklori namunalari janrlari va janriy oʻziga xosligi inobatga olingan holda quyidagicha joylashtirilgan: 1. Beshik qoʻshiqlari. 2. Suyish qoʻshiqlari. 3. Mavsum va marosim taronalari. 4. Hukmlagichlar. 5. Qoʻriqchilik daʼvatlari. 6. Qoʻshiq oʻyinga chorlaydi. 7. Aytishma oʻyinlar. 8. Oʻyin qoʻshiqlar. 9. Turli qoʻshiqlar. 10. Aytishuvlar. 11. Bolalar repertuaridagi oʻtmish davri qoʻshiqlari. 12. Bolalar repertuaridagi sovet davri qoʻshiqlari. 13. Uzun qoʻshiqlar. 14. Satirik va yumoristik qoʻshiqlar.

Akademik Toʻra Mirzayev mazkur jildni baholab, yuqoridagi roʻyxat shunchaki mundarija emasligini, aslida O.Safarovning uzoq izlanishlarini oʻzida aks ettirgan murakkab bolalar folklorining birinchi ilmiy tasnifi ekanligini qayd etadi.

"Boychechak" toʻplamidagi "Beshik qoʻshiqlari" boʻlimiga kiritilgan allalar O.Safarovning dastlabki toʻplovchilik va noshirlik ishi sifatida eʼtirof etiladi. Toʻplamga jami 100 ta alla namunasi kiritilgan boʻlib, ularning hajmi toʻrt qatordan oʻttiz uch qatorgacha, bir banddan olti bandgacha boʻlib, uchlik, toʻrtlik, besh va oltilik shakldagi namunalari uchraydi.

*Oq uyimning oynasi,
Qora uyimning boʻyrasi,
Hayot yukin koʻtarganda,
Qadoq qoʻlimning maynasi,
Alla, jonim, alla.*

Alladagi "oq uy" va "qora uy" birikmalari hayot va oʻlim mohiyatini ochishga xizmat qilgan. Farzand oq uyning oynasiga qiyoslanganda ona uchun bu hayotdagi eng yorugʻ umid ekani, qora uyning boʻyrasiga oʻxshatilganda esa keyingi hayotida ham ona uchun eng aziz ekanligi nazarda tutiladi. Boʻyra qamishga ishlov berib, silliqlangandan soʻng tayyorlanadigan, naʼmat vazifasini oʻtovchi buyum hisoblanadi. Odatda undan mevalarni quritish maqsadida ham foydalaniladi. Ammo allada boʻyraning yana bir xususiyatiga ishora mavjud. Buxoroda bugungi kunga qadar qorongʻu xonada mayitni poklash uchun

bo'yradan foydalaniladi. Ya'ni so'nggi yo'lda ham farzand onaning koriga yarashi ta'kidlanadi. Allalarda farzand ko'proq mayna, quzg'un, bulbul kabi qushlarga qiyoslanadi. Bizningcha, ushbu metaforalar diniy tasavvurlar natijasida paydo bo'lgan. "Qobil va Hobil" qissasida olloh tomonidan jo'natilgan ikki qarg'a (biri ikkinchisini o'ldiradi va jasadini yerga ko'madi, mayitni tuproq ostiga ko'mish shundan qolgan), keyinchalik "Kuntug'mish" dostonida bosh qahramonlarni o'limdan saqlab qolgan quzg'un, "Ravshan" dostonida farzandi haqidagi xabarni onaga yetkazgan mayna kabi obrazlar yaratilishi uchun asos bo'lgan bo'lsa, ajabmas. Yuqoridagi allada ham ona: "Qadoq qo'limning maynasi", – deya farzandini e'tirof etmoqda.

Ma'lumki, allalarda "alla-yo alla" so'zi radif vazifasini bajaradi. Ammo Xorazmda "Huv ollo-yey, ollo", Namanganda "Hi, obbo, hi obbo" jumlasining takrorlanishi o'zbek allalarining lokal xususiyatini ko'rsatadi. "Boychechak" to'plamidagi allalar badiiyatini o'rganish davomida allalarda, asosan, sifatlash, o'xshatish, qarshilantirish, nido, mubolag'a, alliteratsiya kabi tasviriy vositalar qo'llangani aniqlandi:

*Shu yerdan yorim o'tdimi?
Nolam falakka yetdimi?
Ko'z yoshim daryo bo'lib,
Yorim yo'lini tutdimi?*

Alla-yo, alla (10-b.).

To'plamga chaqaloq beshikka belanmasdan qazo qilganda aytiladigan bitta alla namunasi ham keltirilgan. Alla olti banddan tashkil topgan bo'lib, a-a-b-a tarzida qo'fiyalangan. Har bir misra tarkibida "alla-yo, alla" radifi takrorlangan.

*Uzatarlar el-u xeshim, alla-yo, alla,
Ustimda yo'qdir bir kishim, alla-yo, alla.
Bu vatanda yolg'iz boshim, alla-yo, alla,
Orqamda qolmas bir kishim, alla-yo, alla (46-b.).*

Yangi tug'ilib, hali hayot lazzatlaridan tatimay, qonmay turib, bevaqt xazon bo'lgan chaqaloqlarga o'lim allalarini kuylab sadrga tushish haqidagi mulohazalar B.Sarimsoqov, O.Safarov tadqiqotlarida uchraydi. Yuqoridagi alla matni ham motam allalari tipiga kiradi. Unda xalqning motam marosimlariga xos urf-odatlar ham ifodalangan. Keyingi bandlarda bolasidan ayrilgan onaning sochlarini yozib, otaning esa belini bog'lab dod solayotgan qiyofasi kabilar tasvirlangan.

Umuman olganda, "Boychechak" to'plamiga kiritilgan allalar badiiy va kompozitsion jihatdan mukammal bo'lib, ijrochisiga ko'ra ona, buvi hamda aka tilidan aytilgan. Ularda farzand alqovi hamda vatan manfaati ustunligini madh etish yetakchi motiv hisoblanadi.

Xulosa. O.Safarov bolalar folkloriga daxldor 20 ming misra namunani yozib olishga muvaffaq bo'ldi. "Boychechak", "Alla-yo alla", "El suyarim, alla" kabi to'plamlar olimning areal to'plovchi sifatidagi mavqeyini belgilaydi. Ularga kiritilgan bolalar folklori namunalari tekstologik jihatdan tahlil qilingan, poetik mukammal variantlar hisoblanadi. Shuningdek, mazkur to'plamlarga jamlangan materiallar bolalar folklorining hududiy o'ziga xosligini ko'rsatishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki O.Safarov aksariyat matnni Zarafshon vohasiga uyushtirilgan folklor ekspeditsiyasi jarayonida to'plashga muvaffaq bo'lgan. Bu esa keyinchalik Xorazm, Namangan, Farg'ona, Surxandaryo bolalar folkloriga doir areal tadqiqotlar yuzaga kelishida muhim manba vazifasini bajara oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'rinova, M. O 'ZBEK BOLALAR FOLKLORI TASNIFI.
2. Бойчечак. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар Сафаров О., Очилов К. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 184.
3. Сафаров О. Бухоро фольклорини тўплаш ва ўрганиши тарихидан. //Ўзбек тили ва адабиёти. 2003 йил, 1-сон. – Б. 10.
4. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 21-23.
5. Maftuna, U. (2023). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel" Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov.